



**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MODAL SO‘ZLARNING
LINGVOPOETIK TAHLILI**

To‘xtasinova Yoqutxon Bahromjon qizi
QDPI tayanch doktoranti
toxtasinovayoquthon@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi modal so’zlar lingvopoetik jihatdan tahlil qilindi, misollar keltirildi va ikkki tilda qiyosiy o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, badiiy asar tili, muxtor monema, inversiya, obligation, inclination, sintaktik tahlil, semantik tahlil

Abstract: In this article, modal words in Uzbek and English were analyzed linguopoetically, examples were given, and a comparative study was conducted in both languages.

Keywords: linguopoetics, literary language, autonomous monema, inversion, obligation, inclination, syntactic analysis, semantic analysis.

Kirish.

O‘zbek va Ingliz tillarida modal so‘zlarning lingvopoetik tahlili, tilning nafaqat kommunikativ, balki estetik funksiyalarini ham o‘rganish nuqtai nazaridan juda muhim bir yo‘nalishdir. Kirish so‘z yoki so‘z birikmasi shaklida bo‘lib, so‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikrga bo‘lgan turli munosabatini bildiradi. asosan, gapning ohangini, maqsadini, histuyg‘ularini, ehtimolligini yoki majburiyatini ifodalashda qo‘llanadi. Ular tilning xususiyati sifatida, nafaqat semantik, balki pragmatik va poetik ma’nolarga ega bo‘lib, o‘zining lingvistik tizimida murakkab va ko‘p qirrali rol o‘ynaydi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi modal so‘zlar o‘zaro o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ularning ko‘rsatayotgan semantik va stilistik ta’sirida ba’zi farqlar ham mavjud. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi modal so‘zlarning lingvopoetik tahlili amalga oshiriladi. Maqolada, birinchi navbatda, modal so‘zlarning grammatik va semantik jihatlari o‘rganilib, keyinchalik ularning poetik ma’nodagi, ya’ni san’atiy va estetik ahamiyati yoritiladi. Lingvistik tahlil, shuningdek, ushbu so‘zlarning tilga xos uslubi, nutqning turli janrlarida qo‘llanishi va yozuvchi yoki so‘zlovchining niyatlari bilan qanday bog‘liqligi haqida ham to‘xtaladi. Bu esa modal so‘zlarning tildagi estetik kuchi, adabiy asarlardagi o‘ziga xos roli va shu orqali tilning san’at bilan uyg‘unlashish jarayonini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi. Ushbu tahlil ingliz va o‘zbek tillaridagi modal so‘zlarning lingvopoetik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tilshunoslik,

adabiyotshunoslik va estetikani o‘zaro bog‘lab, yangi ilmiy ma’lumotlarni keltirib chiqarishni maqsad qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So‘zlarning lingvistik va poetik jihatlarini o‘rganish bo‘yicha adabiyotlarda bir qancha tadqiqotlar mavjud. Bu sohalarda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tilshunoslar va adabiyotshunoslar tomonidan tilning semantik va estetik jihatlarini chuqur tahlil qilishga imkon berdi. Shu o‘rinda professor N. Mahmudovning quyidagi til tariflari diqqatga molikdir: “Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, go‘zallik kategoriyalarini voqealantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Tilni faqat va faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo‘nlashtirishdan aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo‘lgan sun’iy tilga tenglashtirishdan, yo‘l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas”[1]. Ma’lum bo‘ladiki, til nafaqat aloqa vositasi, balki insoniyatgagina xos bo‘lgan ruhiy kechinmalarini, his-tuyg‘ularini ham ifodalab beruvchi vositadir. Shunday qilib, tildan biz faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o‘z fikrimizga munosabat bildirishni ham istaymiz va shu o‘rinda modal so‘zlarning vazifasi beqiyosdir. “Kirishlar so‘z, so‘z birikmasi, gap shaklida bo‘lib, barcha nutq uslublarida qo‘llanadi. Lekin, ularning ma’lum qismi nutq uslublarining hammasida qo‘llanib, neytral holatda bo‘lsa, ayrimlari nutq uslublarining birida ko‘p, birida oz qo‘llanishi yoki bir nutq uslubiga xoslanganligi bilan farq qiladi”[2]. Modal so‘zlar ham adabiyotshunoslar ham lingvistlar tomonidan keng foydalilaniladigan til vositalaridan birdir, sababi, insonning ruhiy holatini va o‘z fikriga munosabatini bildirishda bu vositadan foydalilanadi. Ingliz tilida ham modal so‘zlarga oid bir qancha salmoqli ilmiy tahlillar olib borilgan, masalan L. Jenkins o‘zining “Modality in English Syntax” dissertatsiyasida modal so‘zlarni turli til kategoriyalarida ilmiy izohlab bergen. M.A.K. Halliday tomonidan yozilgan ushbu kitobda “ An Introduction to Functional Grammar” modal so‘zlar chuqur grammatik, sintaktik, semantik tahlil qilingan. Ushbu kitobda modal so‘zlarga quyidagicha ta’rif beriladi: “Modality as the speaker’s judgement, or request of the judgement of the listener, on the status of what is being said (It could be. Couldn’t it be? You musn’t do that. Must you do that?”[3]” Maqolamiz davomida ushbu tadqiqod ishidan misollar keltiramiz. Avvalambor, lingvopoetika haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak, “Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi sohani “lingvistik poetika”- “lingvopoetika” deb ta’rif beriladi [4]. Shuningdek, I. Mirzayev ham quyidagicha ta’rif beradilar, “lingvopoetika bugungi kunda filologiyaning yaxlitligini tiklashi mumkin bo‘lgan soha deb e’tirof etilayotgan ekan, uning maqsad hamda vazifalarini, tadqiqod obyektini boshqa tarmoq fanlari bilan munosabatini aniqlab olish va bu yo‘nalishdagi ishlarni jadallashtirish kerak...”[5]. Shunday ekan, yuqorida takidlaganimizdek, modal so‘zlarni lingvopoetik usulda tahlilga tortish, tilni yanada chuqurroq tadqiq qilishimizga undaydi.

NATIJALAR.

Modal so‘zlar aytيلاتقان فىرقا مونساتب بىلدىرىقىندا قولمای، قويىداجى فازىفالارنى ham bajaradi; aytيلاتقان فىرقا tinglovchining yanada diqqatini jalb qilish uchun: Marhamat, qulog‘im sizda. (“Mushtum”.) Aytgancha, o‘zlarini qaysi shamol uchirdi. (M. Salom.) Modal so‘zlar takroran qo‘llanilganda, ifodalanayotgan mazmunni yana kuchaytiradi: Afsuski, ming afsuski, dunyoga erta kelgan ekanman. (A.Q) Tilshunos E. Qilichev modal so‘zlarni gapda qay o‘rinda kelishiga qarab ham ma’no farqlaydi deya ta’kidlashgan, masalan, gapning boshida kelganda qat’iy munosabat ifodalamaydi: *Albatta*, va’dani bajaramiz, *albatta*. (“Mushtum”). *Shukur*, ayam sog‘-salomat, *shukur*.(O).[2]. Tadqiqotlarimiz natijasida takidlashimiz joizki, modal so‘zlar joylashuviga ko‘ra gapning semantik doirasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, masalan, *axir*, yoshlikda kim xato qilmaydi, adashmaydi yoki yoshlikda kim xato qilmaydi, adashmaydi, *axir*. (S. Jumanazarov). *Axir* modal so‘zi gap boshida kelib, gapga ta’kid, ishonch ma’nosini beradi, bu gapda so‘zlovchi yoshlikda xato qilish tabiiy ekanligiga ishonch bildiryapti va tinglovchining ham shu fikrga qo‘shilishini kutmoqda. *Axir* modal so‘zi gap oxirida kelib, gapga savol, taajjub ohangini beradi. So‘zlovchi yoshlikda xato qilish tabiiy ekanligiga o‘zi ham hayron ekanligini bildiryapti.

Modal so‘zlarning joylashuvi gapda erkindir, sababi ularning joylashuvi gapning sintaktik qurilishiga ta’sir o‘tkazmaydi. Fikrimizning isboti yuzasidan quyidagi fikrlarni keltiramiz “muxtor monema”³⁶¹ sintaktik o‘rniga ko‘ra gap unsurlarining eng erkin harakatdagisi sanaladi. Shuning uchun aksariyat hollarda uning o‘rnini o‘zgartirib qo‘llash va istalgan paytda gap tarkibidan tushurib qoldirish mumkin, bu bilan gapning umumiyligi sintaktik shakli butunligi buzilmaydi. Masalan, To‘g‘ri, har birimiz (*to‘g‘ri*) pulga muhtojmiz (*to‘g‘ri*). (X. To‘xtaboyev. “Yillar va Yo‘llar”). Ko‘rinadiki, gapning asosiy qismi alohida olinganida ham sintaktik jihatdan bekamu ko‘stdir. Demak, *to‘g‘ri* so‘zining mazkur gap tarkibida qatnashishi uchun sintaktik zarurat yo‘q. uning gap doirasida birgina funktsiyasi bo‘lib, u ham bo‘lsa semantik jihatdan izohlanadi. Ya’ni umumiyligi ma’noning haqiqiy ekanligi qo‘sishimcha ravishda tasdiqlanmoqda, xolos. Shu sababdan gapning bu singari unsurlari muxtor monema deb belgilanadi.[6]. Kirishlar gap strukturasini buzmaydi, aytilayotgan fikrga yangi dalil ham qo‘shmaydi, balki shu fikrga so‘zlovchining munosabatini, kuchli hayajonlanganini bildiradi. Shuning uchun ham bunday so‘zlar ko‘proq badiiy va so‘zlashuv uslubida uchraydi [2.]. Masalan: Baxtimga, onajonim sog‘ bo‘lsin (“Yoshlik”). Tavba, bu lanatini nima qilsa bo‘ladi a?(og‘zaki nutqdan).

Ingliz tilida modal fe'lllar gapda ma'lum sintaktik vazifa bajaradi ya'ni gap tarkibida yordamchi kesim bo'lib keladi. Mustasno holatlar ham mavjud bo'lib, qachonki maqollar, iboralar tarkibida kelganda gapda so'z tartibi qoidasidan chetlashishi mumkin, masalan, *all we could do was to stay and wait*-imkoniyati cheklanganlik (Henry O. Stories) ma'nosini bildirib, odatiy gap strukturasiga ko'ra quyidagicha bo'lar edi, "we could do all that was to stay and wait". Lekin, bu yerda "all we could do" inversiya ishlatalgan. Buning sababi, bu tuzulma gapga

³⁶¹ To'liq ma'lumot uchun qarang: Турниёзов Н., Турниёзова К. Функциопап синтаксисга кириш. Тошкент: «Фан», 2003, 60 б.

ta’kid qo‘shish va gapni yanada kuchaytirish uchun ishlatilgan, natijada esa ikkinchi modal fe’l was to ning egasi tushib qolgan va inversiyaga uchragan, odatda subject +modal verb holatida bo‘lishi kerak edi. Demak, modal fe’llar inversiya holatidagina gapda so‘z tartibi qoidasidan chetlashadi va qo‘shimcha ma’no ta’kid, kuchaytiruv holatida keladi. Shuningdek, ingliz tilida ham o‘zbek tilidek bir nechta modal ma’nolar mavjud bo‘lib, biz quyida majburiyat (obligation) va istak (inclination) ma’nolarini turli gap strukturalari orqali hosil bo‘lishini tahlil qilamiz. Modal fe’llar yordamida: e.g. you *should* know that, I’ll help them. Passiv fe’llar orqali: e.g. you are supposed to know that yoki ayrim sifatlar bilan (typically by an adjective), e.g. I am anxious to help them. Turli gap strukturalari orqali bir xil modal ma’no yuzaga chiqmoqda.[3].

Modal fe’llar grammatik ma’no bilan birgalikda semantik ma’nolarni ham bildirishi ma’lum, masalan, I shall go home- kelasi zamon, darak gap; Shall I go home?- kelasi zamon, so‘roq gap va taklif ma’nosiga ega.[3] Demak, ingliz tilida modal fe’llar joylashuvi o‘zgarganda, gapning sintaktik hamda semantik jihatlariga ta’sir ko‘rsata oladi. Ya’ni, modal fe’llar egadan oldinga o‘tishi orqali, darak gapdan, so‘roq gapga *shall I go home?*-uyga *ketsammikin?* va uyga ketmoqchi bo‘lgan niyatimni so‘rash-taklif orqali ifodalayapman. Fikrimizni xulosalasak, modal so‘zlarni o‘rnini o‘zgartirish, har ikkala tilda ham semantik holatiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi, asosan gapning ta’kidlanish darajasi, rasmiyligi, majburiyatning kuchayishi, shubha va imkoniyat kabi ma’nolarni yuzaga keltiradi.

MUHOKAMA.

Modal so‘zlar lingvistik tahlilning muhim qismidir, ayniqsa, shoirlarning ifoda uslubida ularning roli katta. Modal so‘zlar asosan so‘zning ma’nosini, ehtimollik yoki zaruriyat darajasini belgilaydi va shu orqali tilning ifodaviy kuchini oshiradi. Poetik janrda ham modal so‘zlarning o‘rni, ularning poetik va estetik vazifalari, hamda shoirlarning fikri yoki histuyg‘ularini qanday tarzda kuchaytirishi haqidagi muhokama va asarlarning chuqur tahlilini amalga oshirish uchun zarurdir. Ushbu qismda, shoirlarning asarlarida ishlatilgan modal so‘zlar, ularning she’riy maqsad va niyatları bilan qanday bog‘liq ekanligi o‘rganiladi va bu so‘zlar qanday qilib she’rning umumiyligi mazmuniga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Quyida A. Oripovning “Bola edim” misralaridagi modal so‘zlarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilishga urinamiz:

Gar gunoh orttirsang o‘zinga og‘ir,
Vijdon azobida qovrulsang bot-bot,
Hayhot! Kimga borib dod deysan, axir,
Qayga bekinasan o‘zingdan, hayhot!

Ushbu berilgan misralarda, *hayhot* modal so‘zi kuchli emotsiyonal ottenkasi bilan ajralib turibdi, takror qo‘llanilishi esa expressivlikni yanada kuchaytirgan. Ma’lumki so‘z takrori ayniqsa, poetik nutqda fikrning ifodadorligini kuchaytiradi [7]. *Hayhot* so‘zi she’rda modal so‘z sifatida ishlatilgan bo‘lib, ichki izardirob va shubhani ifodalaydi. Bu, o‘z navbatida, insonning umidsizlik, qiyonoqlar, ichki izardiroblarini ifodalash uchun ishlatilgan deya izohladi. *Axir* modal so‘zi tilimizda “nihoyat”, “hech bo‘lmaganda”, “ayniqsa” kabi ma’nolarni anglatadi. Bu so‘z, biror narsaning oxirgi natijasi yoki eng muhim jihatini ta’kidlash uchun ishlatiladi. She’rda

“axir” so‘zi o‘quvchiga yoki tinglovchiga biror holatning oxirgi natijasini yoki uning tushunilmaganligini bildiradi. misrada modallikni kuchaytirish va his-tuyg‘ularni kuchaytirish uchun ishlatilgan. “Axir” so‘zi “qayga bekinasan o‘zingdan” degan savolga javob qidirishni bildiradi. she’rda shubha va savolga javob izlashning ohangini yaratadi. O‘quvchi “axir” so‘zi yordamida insonning o‘zgarishga, o‘zining ichki o‘zgarishlarini anglashga bo‘lgan ehtiyojini va hal qilish kerak bo‘lgan muammoni sezadi. Bu so‘z, insonning so‘nggi chora sifatida qochish va bekinish yo‘li yo‘qligini ta’kidlaydi. “Hayxot” va “axir” so‘zlari she’rda yuqori modallikni bildirib, ular insonning ichki muammolari, iztiroblari va umidsizliklarini ifodalash uchun ishlatilgan. *Hayxot* so‘zi o‘zining ruhiy iztirobi va chuqur hissiyotlarini tasvirlashda ishlatilsa, *axir* so‘zi savol va shubha yaratadi, insonning o‘zini o‘zi anglashidagi oxirgi nuqtani ko‘rsatadi. Bu so‘zlar she’rning tashqi ma’nosini ichki, ruhiy jihatga aylantiradi va o‘quvchini chuqur fikrlashga undaydi deya tahlil qildik.

Ingliz she’riyatidagi modal fe’llarni ham tahlil qilishga oshiqdik:

Must I strive, and must I seek,
Must I plead, and must I speak?
Can I not my passion hide?
Must I with sorrow be allied?

The Eve of St. Agnes

by John Keats

Bu she’r **John Keats**ning romantik she’riyatining ajoyib namunalaridan biridir. She’rda sevgi, hasrat va nostalji tasvirlari mavjud, shuningdek, insonning ichki iztiroblari va uning o‘limga bo‘lgan munosabati ham ifodalangan. Berilgan misralarda modal fe’llar *must* va *can* ishlatilgan. Ularni lingvopoetik jihatdan tahlil qilaylik: “*Must I strive, and must I see*”, *must* modal fe’li majburiyatni yoki zaruratni ifodalaydi. Bu yerda *must* fe’li shaxsni yoki o‘zini biror narsani amalga oshirishga undashni anglatadi. Bu shartli holatda, so‘zlovchi o‘zini biror narsani qilishga majbur deb hisoblaydi, ammo shubhalanadi. She’rda *must* fe’li emotsional majburiyatni, ichki kurashni va sevgi yoki hissiyotlar tufayli yuzaga kelgan tasavvuriy zaruratni ifodalaydi. Bu yerda asosiy maqsad - “strive” (kurashish) va “seek” (izlash) kabi so‘zlar orqali ichki qiyinchilik va tashvishlarni ko‘rsatish. “*Must I plead, and must I speak?*” yana *must* fe’li ishlatilgan, bu majburiyatni ifodalashda davom etadi. “Plead” (yaxshi iltimos qilish) va “speak” (gapishtirish) kabi fe’llar, so‘zlovchining ichki ezguligini va hissiyotlarini ifodalashga majburiyatini ko‘rsatadi. U o‘zini qandaydir ishoralar, so‘zlar yoki harakatlar orqali his-tuyg‘ularini ochib berishga undaydi. Bu misrada *must* fe’li, insonning ichki kurashini va o‘zining qanchalik majburiyatda ekanligini, o‘z his-tuyg‘ularini ochish yoki bildirish zaruratini sezishini ifodalaydi. Bu, his-tuyg‘ularning kuchini va ichki tortishuvni ko‘rsatadi. “*Can I not my passion hide?*” *Can* fe’li imkoniyatni yoki qobiliyatni bildiradi. Bu misra orqali shaxs o‘zining tuyg‘ularini yashirish mumkinligini yoki yo‘qligini so‘raydi va “can”ning salbiy shakli (can not) ishlatilgan bo‘lib, “I not” deb yozilishi, bu yerda shaxs o‘z tuyg‘ularini yashira olishiga shubha bilan qaraydi. *Can* fe’li ichki ziddiyatni ifodalaydi, chunki shaxs o‘zining kuchli

hissiyotlarini yashirish yoki ularni ko‘rsatmaslik imkoniyatini qidiradi. Bu, bir tomondan, yashirishga intilish va boshqa tomondan, hissiyotlarni ifodalashga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi. “*Must I with sorrow be allie?*” Bu yerda ham must fe’li ishlatiladi, bu majburiyatni bildiradi. “Be allied” ifodasi, qachonki “sorrow” (qayg‘u) bilan birlashish yoki bog‘lanish majburiyati haqida gapiradi. Shaxs qayg‘u bilan birlashishga majbur ekanligini his etadi. Must fe’li, bu yerda shaxsning qayg‘u bilan birlashishga majbur bo‘lganligini, uning hayoti va ruhiy holati qandaydir og‘irlik bilan bog‘langanligini ifodalaydi. Bu, insonning ichki azobi va qayg‘usi bilan birlashtirilganligini anglatadi. Must modal fe’li misralarda majburiyat, zarurat, ichki kurash va iztirobni ifodalaydi. Shuningdek, shaxs o‘zining his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq muammolarni va qiyinchiliklarini ham tushunishga harakat qilayotganini ko‘rsatadi. Can modal fe’li imkoniyatni yoki salbiy holatni bildiradi. Bu misrada shaxsning tuyg‘ularini yashirish yoki ko‘rsatmaslik mumkinligini so‘raydi, ammo u ichki kurashda va hissiyotlarini yashirishdagi cheklovlarini his etadi. Bu modal fe’llar orqali shaxsning ichki iztiroblari, majburiyatları va sevgi yoki qayg‘uga bo‘lgan munosabati ochib beriladi. She’rning ruhiy va hissiy holatini yaratishda bu modal so‘zlar muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

O‘zbek va ingliz tilidagi modal so‘zlarni tahlil qilish orqali ularning ekvivalentlari orasidagi farqlar va o‘xshashliklar, tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini, madaniy va ijtimoiy kontekstlarni aks ettiradi. Xususan, ingliz tilida modal so‘zlar ko‘pincha shakl ya’ni grammatik usul orqali ifodalanishini o‘rgandik, o‘zbek tilida esa bu jarayon ko‘proq kontekstual, kommunikativ, morfologik va qisman sintaktik omillarga asoslanishini kuzatdik. Shu bilan birga, lingvopoetik tahlil orqali, modal so‘zlarning tilni ifodalashdagi roli, adabiy asarlardagi ma’naviy va estetik ahamiyati va poetikaga ham kuchli ta’siri o‘rganildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi modal so‘zlar, nafaqat mantiqiy nuqtai nazardan, balki hissiy va ma’naviy jihatlardan ham muhim o‘rin tutadi. Ularning poetik kontekstdagi ishlatilishi, so‘zlarning chuqur ma’nolarini ochib beradi va o‘quvchida maxsus estetik ta’sir uyg‘otadi. Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillarida modal so‘zlarning lingvopoetik tahlili, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini, shuningdek, adabiyotda tilning san’at sifatida qanday ishlatilishini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqot, tillararo taqqoslash va interlingvistik tadqiqotlarda yangi yo‘nalishlar ochib beradi, shuningdek, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida yanada chuqurroq tahlil imkoniyatlarini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Махмудов., Н. (2006). Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси. *Филология масалалари*. Тошкент.
2. ҚИЛИЧЕВ, Э. (1992). УЗБЕК ТИЛИНИНГ АМАЛИЙ СТИЛИСТИКАСИ (Грамматика). ТОШКЕНТ: «УҚИТУВЧИ». С.142

3. Halliday, .. M. (2004). *An Introduction to Functional Grammar*. New York: "Madison Avenue". P.158
4. Йўлдошев, М. (2008). *Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи*. Тошкент: "ФАН".
5. Мирзаев, И. (2002.). Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни масалалари. *ЎзМУ илмий мақолалар тўплами*, (стр. Б. 22). Тошкент.
6. Турнизов Н., Т. К. (2003). *Функционал синтаксисга кириши*. Тошкент: «Фан». Б.60
7. Умурқулов, Б. (1990). *П О Э Т И К Н У ТК Л Е К С И К А С И*. Тошкент: Узбекистон С С Р «Фан» нашриёти, 1990 й., Б.87